



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kangalning o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

3. Sobirova D., Abdullayeva M. Boshlang 'ich sinf o 'qish darslarini lg 'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish. - SCHOLAR, 2024 - scholar-journal.org

4. Novshadbekova D.Z.. "Development of students' intellectual creative thinking skills: a modern approach". International bulletin of applied science and technology. 2024. №5.

UO'K: 30.428

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA NUTQ O'STIRISH DARSLARI ORQALI "SOFT SKILLS" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

<https://zenodo.org/records/18754660>

Xoldarova Mubina Qudratbek qizi
Tairova Madinabonu Baxtiyarovna.
Andijon davlat pedagogika insituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, maktabgacha ta'lim yonalishlarida talabalarning kommunikativ madaniyati, jamoada ishlash, mustaqil fikrlash va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilgan. Bu jarayonda nutq o'stirish darslari soft skills ko'nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi MDH mamlakatlaridan Rossiya va Qozog'iston ta'lim amalyotida nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari orqali ijtimoiy – kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish samarali metod sifatida qo'llanilgan. Mazkur tajribalar maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash zarurati berilgan.*

Kalit so'zlar: *eksperemental, metadalogiya, eksperement, nutq o'stirish, diagnostika, interaktiv, soft skills, muloqot, empatiya, emotsional kommunikativlik, refleksiya, maktabgacha ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье особое внимание уделяется формированию мягких навыков (soft skills) на основе личностно-ориентированного подхода в процессе модернизации системы образования Республики Узбекистан. В частности, в направлениях дошкольного образования проводится системная работа по развитию у студентов коммуникативной культуры, навыков работы в команде, самостоятельного мышления и речевых компетенций. В данном процессе занятия по развитию речи рассматриваются как эффективное средство формирования soft skills и имеют важное педагогическое значение. В образовательной практике стран СНГ, в частности России и Казахстана, развитие социально-коммуникативных навыков посредством занятий по развитию речи широко применяется как эффективный метод. Данный опыт обосновывает необходимость научного обоснования методики развития soft skills у студентов направления дошкольного образования через занятия по развитию речи.*

Ключевые слова: *экспериментальный, методология, эксперимент, развитие речи, диагностика, интерактивный, эффективность, сотрудничество, soft skills, общение, эмпатия, эмоциональная коммуникативность, рефлексия, дошкольное образование.*

Abstract. *This article focuses on the growing attention given to the development of soft skills based on a learner-centered approach in the process of modernizing the education system of Uzbekistan. In particular, systematic efforts have been carried out in preschool education programs to develop students' communicative culture, teamwork skills, independent thinking, and speech competence. In this process, speech development classes play a significant role as an effective means of forming soft skills. In the educational practices of CIS countries, such as Russia and Kazakhstan, the development of social and communicative skills through speech development activities has been widely applied as an effective pedagogical method. These experiences highlight the necessity of providing a scientific justification for the methodology of developing soft skills in preschool education students through speech development classes.*

Keywords: *experimental, methodology, experiment, speech development, diagnostics, interactive, effectiveness, cooperation, soft skills, communication, empathy, emotional communicativeness, reflection, preschool education.*

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish bugungi ta'lim tadqiqotlarining muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida nutq,

kommunikatsiya va shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi ilmiy maqolalar orqali yoritilmoqda. Y.S.Sidiqovanning pedagogik yondashuvlar va ularning bosqichma-bosqich metodlar tahlil qilingan ilmiy ishlarni chop etgan. Soft skills jarayoni ta'limda muhim ekanligini qayt etganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston milliy pedagogika universitetining psixologiya fanlari doktori (DSc) Tuychiyeva Saodat Melikoziyevna "Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlantirishning psixologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida Soft skills (yumshoq ko'nikmalar) – faolyatida zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, odatlar, shaxslararo munosabatlarni o'rnatish va muloqot qobiliyatlaridir. Mutaxassislarning soft skills ya'ni yumshoq ko'nikmalari quyidagilarda namoyon bo'lishi kerak: muloqot qilish mahorati, jamoaviy ish va hamkorlikda ishlay olish, muamoni hal qilish, turli vaziyatlarda moslashuvchanlik, tashkilotchilik, yetakchilik va o'z vaqtini to'g'ri boshqarish kabidir. Soft skills ko'nikmalari orqali ijtimoiy muhitga kasbiy adaptatsiyasi uchun kommunikativ xususiyatlarni shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega deb ta'kidlab o'tgan [1].

"Moslashuvchan ko'nikmalar" (ing. soft skills) — bu "kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishga, yuqori ish unumdorligiga sabab bo'ladigan va aniq bir soha bilan bog'liq bo'lmagan, kasbdan ust ko'nikmalar majmui". «Yumshoq ko'nikmalar»ni (soft skills) rivojlantirish muammosi bilan turli davrda ko'plab olimlar shug'ullanganlar, ular bu tushunchani har xil qarab, xilma-xil ta'riflaganlar. Bu esa ularning har birining idrok xususiyatlari va ilmiy qiziqish sohalaridagi farq bilan izohlanishi mumkin. E'tibor etilishi kerakki, mavjud barcha ta'riflar bir-biriga qisman bog'liq va bir-biriga qaram-keladi, ba'zilari esa bir-biriga chuqur singib ketgan.

O.Abashkina soft skillsni «eng yaxshi mutaxassis ham yaxshi natijaga erisha olmaydigan inson sifatлари...» sifatida tushunadi.

V. Davidova fikricha, «soft skills» — bu qo'shimcha ta'lim va shaxsiy hayotiy tajriba natijasida olingan va aynan kasbiy faoliyatda o'zini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan ko'nikmalar [2].

N. V. Zhadko va M. A. Churkina soft skillsni rivojlantirishni kasbiy shaxslararo munosabatlar tekisligida o'rganadilar. Bu munosabatlar korxonada ish va tashkiliy kontekstiga jalb bo'lishni, korporativ manfaatlarni tushunish va ifodalashni, kasbiy vazifalarni qo'yish va yechishni o'z ichiga oladi.

I.Kanardov soft skillsning psixologik tarkib qismini o'rganadi va uni «ijtimoiy ko'nikmalar qatori»ga kiritadi: isbotlash qobiliyati, odamlar bilan aloqa o'rnatish, rahbarlik qilish, shaxslararo muloqot, muzokara jarayonlarini olib borish, jamoa bilan ishlash, shaxsiy rivojlanish, vaqtni boshqarish, eruditsiya, ijodkorlik va boshqalar».

Yu.Portland tadqiqotlarida bu tushunchaning mazmuni o'xshashligi kuzatiladi: u ham "soft skills" ni turli yosh toifasidagi odamlar bilan aloqa o'rnatish imkonini beradigan ijtimoiy ko'nikmalar sifatida ta'riflaydi [3].

AQSH kontestida yumshoq ko'nikmalar – shuningdek "social and emotional skills" – modeli bo'yicha The Shaping Us Framework kabi xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan kontseptual yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy va emotsional rivojlantirishga ta'limdagi o'rni va uning hayot davomiyligidagi ahamiyatini ilmiy asoslab beradi. Bu ilmiy tadqiqotlar (soft skills) ni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ularni o'quv dasturlariga kiritish, shuningdek pedagoglarni bu boradagi metodik yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning nutq o'stirish darslari orqali (soft skills) ya'ni yumshoq ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kommunikativlik, empatiya, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faol o'qitish metodlarining samaradorligi tajribalar asosida asoslab berilgan. Ikki guruhda o'tkaziladi biri an'anaviy dars yana biri esa soft skillsga yondashilgan darslar, uning tahlil va xulosalari qilingan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida talabalar nutq faolligi, o'z fikrini aniq ifodalash darajasi, o'zaro muloqot sifati kuzatilib baholanadi. Olingan natijalar kommunikativ o'yinlar va interaktiv metodlar soft skillsni shakllantirishda an'anaviy darslarga nisbatan ancha samarali ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot umumiy xulosalari maktabgacha ta'lim yo'nalishida nutq o'stirish darslarini yangicha metodik yondashuv asosida tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog talabalarni o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha juda ham kerakli bo'lgan fanlarni o'rgatadi shuning uchun ham ularda qattiq ko'nikmalar shakllanib boradi. Odatiy nutq o'stirish darslarini badiiy nutqning ravonligi she'r yoki ertakni bolalarga so'zlash davomida artikulyatsiya, mimikadan foydalanish singari ko'nikmalarni rivojlantiradi xuddi shu jarayonda nutqning ravonligiga alohida e'tibor berilishi lozimligi ta'kidlaniladi. Chunki tarbiyachi bolalarga so'zlab berayotganida nutq ravonligida kamchilik bo'lsa tarbiyalanuvchida ham xuddi shunday nutqiy kamchilik shakllanib qolishi mumkin. Ana shunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun ham pedagog tarbiyachilarga nafaqat bilim balki nutq ravonligini yanada yaxshilash uchun nutq o'stirish darslari o'qitiladi. Bu darslar orqali tarbiyachi ham tarbiyalanuvchining nutqi to'g'ri va ravon shakllanadi. Nutq o'stirish darslari orqali shaxsni faqat bilim bilan emas, balki ijtimoiy va kommunikativ jihatdan faol, hamkorlikka tayyor, ijodkor sifatida tayyorlashni talab etadi. Shu bois soft skills (yumshoq ko'nikmalar)ni rivojlantirish pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar kelgusida bolalar bilan muloqotda bo'ladigan pedagoglar sifatida nutqiy madaniyat, empatiya, kommunikativ kompetensiyani chuqur egallashlari lozim. Aynan nutq o'stirish darslari bu jarayonda samarali vosita bo'lib, talabalarning soft skillsini tabiiy tarzda shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi — nutq o'stirish darslari orqali maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishdir.

Eksperiment: talabalar ikki guruhga bo'lindi nazorat guruhi (an'anaviy dars) va eksperimental guruhi (soft skills integratsiyalangan nutq o'stirish darslari). Diagnostika mezonlari: kommunikativlik, ijodkorlik, jamoada ishlash, empatiya, refleksiya. Statistik tahlil: natijalar foiz ko'rinishida solishtirildi. Darslarda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Rol o'ynash ("Tarbiyachi va bola suhbatda");
- Keys-stadi ("Muammoni hal etish");
- Aqliy hujum va refleksiya mashqlari;
- Interaktiv suhbat va taqdimot [4].

O'yinlardan oldin va keyin talabalar soft skills darajasi maxsus diagnostik savollar orqali baholanadi. Olingan natijalar statistik va sifat tahlili orqali o'rganildi.

Kommunikativ o'yinlarni qo'llash natijasida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: Muloqot kompetensiyasining o'sishi: talabalar o'z fikrini erkin, ifoda qilishga odatlandi. Suhbat davomida bir-birini tinglash va fikrini davom ettirish ya'ni bir jamoadagi talaba fikri chalg'ib

to'xtab qolgudek bo'lsa uning jamoadoshi hech ikkilanmay nutqini davom ettirdi. Fikrni davom ettirish ko'nikmalari yaxshilandi. Muloqot kopetensiyasi o'rtacha 25% ga oshdi.

Hamkorlik va jamoada ishlash 18% ga faollashdi: jamoaviy o'yinlar esa jamoadoshlarning o'zaro ahil hamda birdam bo'lishga undadi. Talabalarni bir-biriga yordam berish, vazifalarni taqsimlash va jamoa mas'uliyatini his qilishga o'rgatdi.

Empatiya va emotsional savodxonlik 22%ga kuchaydi: "Men his qilyapman" kabi o'yinlar talabalarda boshqalarning ichki kechinmalarini, hissiyotlarini tushunish, o'z emotsiyalarini boshqarish ko'nikmlarini rivojlantirdi.

Ijodkorlik va kreativ fikrlash faollashdi: Rol o'yinlari va keys stadi jarayonida talabalar yangi g'oyalar ilgari sura boshladi, turli vaziyatlarga original yechimlar topdi. Talabalar kelgusida albatta bolalar bilan faolyat olib boradilar, shu faolyat davomida tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ham muntazam suhbat olib boradilar. O'yinlar tabiiy chiqishi uchun ham bu muloqotlar tabiiy olib boriladi ota-ona ro'lidagi talabalardan esa aktyorlik mahorati talab qilinadi. Shu sababli ham ijodkorlik kopetensiyasi 20% ga oshdi.

O'z-o'zini baholash shakllanadi: refleksiya bosqichida talabalar o'z xatosini anglash, o'z ustida ishlash va rivojlanishga o'rganadilar. O'yinlar davomida kuzatadiki raqiblari balki jamoadosh sheriklarini orasidan nutqi ravon va kreativ fikrlashini ko'radi va u ham harakat qiladi nutqini ravon qilishga kreativ fikrlashga umuman aytganda o'zini-o'zi shakllantirishga.

Eksperimental guruh talabalarida fikrni ifodalash, tinglash madaniyati, muloqotda ishonch, hissiy tahlil kabi jihatlar ancha rivojlangan. Ular nutq mashqlarida faol ishtirok etib, o'zaro fikr almashuvda yuqori natija ko'rsatdilar. Dars jarayoni tabiiy tashkillashtirilganligi sababli yuqori natijalar ko'rsatiladi. Chunki soft skills yondashuvini qo'llash bu talabani fikrini ochiq aytishga undaydi, bu muloqot jarayonida asosiy fikr bildiruvchi, nutq so'zlovchi bu talaba hisoblanadi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar 5-7% atrofida bo'lib, interaktiv va soft skills yondashuvi samaradorligini aniq ko'rsatdi [5].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, nutq o'stirish darslarini soft skills elementlari bilan boyitish ta'lim jarayonini yanada mazmunli va interaktiv qiladi. Birinchidan, bu metodika talabalarining faol ishtirokini oshiradi, chunki ular muloqot jarayonining markazida bo'ladi. Bunday darslar odatda qiziqarli bo'ladi chunki tabiiy jarayon kertadi darsda hech qanday tayyorgarliksiz holatdan kelib chiqqan holda. Ikkinchidan, empatiya va ijtimoiy sezgirlik rivojlanadi — bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyat uchun juda muhim. Chunki suhbardoshiga uning so'zlari qanday ta'sir etayotganini tushunadiki agarda suhbatdoshiga uning so'zlari yoqmayotganini bilsa vaziyatdan osongina chiqib mavzuni o'zgartirishi ham mumkin bu usulni nafaqat tarbiyalanuvchi bilan muloqotda balki o'zining shaxsiy hayoti davomida ham qo'l keladi. Uchinchidan, darsning refleksiv bosqichi talabalarga o'z nutqini, his-tuyg'usini va muloqot uslubini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantiradi, balki kommunikativ vaziyatlarda qay tarzda ishtirok etgani, qanday fikr bildirgani, suhbatdoshi qanchalik tinglagani yoki tushunganini anglashga yordam beradi. Refleksiya orqali talabalar o'zlaridagi kuchli va rivojlantirishni talab qiladigan tomonlarini aniqlaydi, mantiqiyroq va amaraliroq ifodalashga ongli tarzda intila boshlaydi. Shu bilan birga, refleksiv yondashuv soft skillsning asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan o'zini anglash, emotsional boshqaruv, empatiya va mas'uliyatni ham mustahkamlaydi [6].

1. Nutq o'stirish darslari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay metodik muhit yaratadi. Va bu muhit orqali ular o'zida yashiringan iqtidorlarni chiqara oladi.

2. Interaktiv metodlar (rol o'ynash, keys-stadi, refleksiya) talabalarda kommunikativlik, empatiya va ijodkorlikni rivojlantiradi. Mutaxassisligi bo'yicha belgilangan tashkilotga tayyor yetuk kadr sifatida tayyorlaydi.

3. Soft skillsni rivojlantirishga yo'naltirilgan dars modeli talabalar shaxsiy o'sishini ta'minlaydi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Shunday qilib, soft skills komponentlarini nutq o'stirish faniga integratsiya qilish pedagogik tayyorgarlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Kommunikativ o'yinlar yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. O'yin jarayonida talaba passiv tinglovchi bo'lib qolmaydi, balki faol muloqot ishtirokchisiga aylanadi. Shu orqali u o'z nutq faoliyatini boshqarishga, o'z fikrini aniq yetkazishga, jamoa a'zolar bilan o'zaro kelishib ishlashga o'rganadi.

Interaktiv o'yinlar orqali shakllangan soft skills keyinchalik talabalarning pedagogik faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ o'yinlardan foydalanish maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ular talabalarda kommunikativlik, empatiya, ijodkorlik, kommunikativlik va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Shu bois nutq o'stirish darslarida kommunikativ o'yinlarni tizimli ravishda qo'llash zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

Nutq o'stirish darslari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari nutq mashg'ulotlari orqali kommunikativlik, jamoada ishlash, ijodiy fikrlash va ijtimoiy faollik kabi soft skills samarali rivojlanishini ko'rsatadi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayonida nutq o'stirish faniga soft skillsni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychiyeva S.M. "Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlantirishning psixologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasi (21-23) Toshkent 2025 (www.ziyonet.uz)

2. Давидова В. Tinglash, gapirish va kelishish: soft skills nima va ularni qanday rivojlantirish mumkin. <http://theoryandpractice.ru/posts/11719-soft-skills>.

3 Жадько Н. В., Чуркина М. А. Hard skills va soft skillsni o'qitish – ularning farqi nimada? <http://hr-portal.ru/article/obuchenie-hardskills-i-soft-skills-v-chyom-raznica>.

4. Sidiqova Y. S. Yumshoq ko'nikmalarni ta'lim jarayonida shakllantirish metodlari // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2020. №4. 57-b.

5. Karimova V.M. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

6. G'ofurov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2021.

UO'K: 373.2:159.922.7.

SANIYE BENJIK KANGALNING O'YIN PEDAGOGIKASI VA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT HAQIDAGI QARASHLARI

<https://zenodo.org/records/18754664>

Abdurahmonova Hilola Valijon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiyalik pedagog-psixolog Saniye Benjik Kangalning o'yin asosidagi ta'lim, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va bolalarda hissiy intellektni shakllantirishga oid qarashlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Olimaning yondashuvi Montessori va Reggio Emilia pedagogikasi, shuningdek, Sharq tarbiyasining asosiy tamoyillarini integratsiya qilishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotdan maqsad – Kangalning pedagogik konsepsiyasini ilmiy asosda yoritish hamda maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Kalit so'zlar: o'yin pedagogikasi, rivojlantiruvchi muhit, emotsional intellekt, Montessori, Reggio Emilia, maktabgacha ta'lim.

